

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 551-sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 28-avgustda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH

Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80

UMAROVA SHAXLO ABDUVALIYEVNA

Strategik moliyaviy hisob tizimini tashkil etishning konseptual yondashuvlari va tarkibiy elementlari.....87

HOU MANPING, CUI HUIFANG

Lessons from China for ecological protection and restoration of the Aral sea basin.....102

SHADMANOV ZUHRIDDIN ZOKIRXODJAYEVICH

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini baholash.....113

BADALOVA NIGORA NORKULOVNA

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning xorijiy modellari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....126





ZHU YU MING

The collaborative logic of digital transformation of China's tourism infrastructure.....137

ИСАЕВА АЙЖАН

Цифровая трансформация туризма как механизм структурной диверсификации сферы услуг.....152

KARIMOVA MAFTUNA NURDINOVNA

“Yashil” qo‘shilgan qiymat: organik, halol va karbon-neytral sertifikatlarining O‘zbekiston mahsulotlari narxiga ta’siri.....166

XABIBULLAYEV ANVAR SHOVIKAT O‘G‘LI

Zamonaviy boshqaruv modellari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish.....177

SAPAYEV SINDOR QADAMBOY O‘G‘LI

Mintaqaviy innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi: qiyosiy tahlili.....185

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida oziq-ovqat xavfsizligining ta‘minlanishi.....194

UMAROV AZIZJON AZAMJON O‘G‘LI

Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta’siri.....201

AZAMQULOV NURBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati hamda bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....207

BAXTIYAROVA SABOHAT BAXTIYAROVNA

Raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....214

BOZOROVA MUXABBAT TO‘XTAYEVNA

Davr xarajatlari hisobini takomillashtirish.....221

DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH

Xizmatlar iqtisodiyotida mehnatni ratsional tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....230

KURBONOV BAXODIR ERGASHEVICH

Transfert narxlarning iqtisodiy mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....243

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Yangi O‘zbekistonda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish istiqbollari.....249

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O‘G‘LI

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.....256

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari va ularni o‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari.....267

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda kichik biznesning bandlik va YAIMdagi ulushlari nomutanosibli: milliy va hududiy statistik tahlili.....277





UO'K: 330.322.2:69.003(100)(575.1)

QURILISH SANOATIDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI BOSHQARISHNING XORIJIY MODELLARI VA ULARNI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

E-mail: Boyfame90@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-9093-5218>

Annotatsiya. Mazkur maqolada qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari o'rganilib, ularni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi - Xitoy, Buyuk Britaniya, Turkiya, Qozog'iston va Ozarbayjon kabi davlatlarning investitsiyalarni jalb qilish modellarini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning O'zbekiston institutsional muhitiga moslashuvi mumkin bo'lgan elementlarini aniqlashdan iborat. Qiyosiy-institutsional tahlil asosida har bir modelning o'ziga xos ustuvor jihatlari aniqlanib, ularni milliy sharoitga moslashtirishga qaratilgan konseptual model ishlab chiqildi. Olingan natijalar davlat idoralari va qurilish korxonalari uchun investitsion siyosatni takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy tajriba, davlat-xususiy sheriklik, qurilish sanoati, institutsional moslashuv, investitsion model, xalqaro tajriba, bir oyna tizimi, investitsion risk, milliy adaptatsiya.

Аннотация. В данной статье исследованы зарубежные модели управления привлечением инвестиций в строительную индустрию и возможности их адаптации к практике Узбекистана. Цель исследования заключается в проведении сравнительного анализа моделей привлечения инвестиций, применяемых в Китае, Великобритании, Турции, Казахстане и Азербайджане, а также в выявлении их элементов, которые могут быть адаптированы к институциональной среде Узбекистана. На основе сравнительно-институционального анализа определены характерные преимущества каждой модели и разработана концептуальная модель их адаптации к национальным условиям. Полученные результаты имеют практическое значение для государственных органов и предприятий строительной индустрии при совершенствовании инвестиционной политики.

Ключевые слова: привлечение инвестиций, зарубежный опыт, государственно-частное партнёрство, строительная промышленность, институциональная адаптация, инвестиционная модель, международный опыт, принцип «единого окна», инвестиционный риск, национальная адаптация.

Abstract. This article examines foreign models for managing investment attraction in the construction industry and explores the possibilities of adapting them to the practice of Uzbekistan. The study aims to conduct a comparative analysis of investment attraction models applied in China, the United Kingdom, Türkiye, Kazakhstan, and Azerbaijan and to identify their elements that can be adapted to Uzbekistan's institutional environment. Based on a comparative institutional analysis, the distinctive advantages of each model are identified, and a conceptual model for their adaptation to national conditions is developed. The findings have practical significance for government authorities and construction industry enterprises in improving investment policy.

Keywords: investment attraction, foreign experience, public-private partnership, construction industry, institutional adaptation, investment model, international experience, one-stop-shop principle, investment risk, national adaptation.





KIRISH

Jahon amaliyotida qurilish sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishni boshqarish borasida turli institutsional modellar shakllangan bo'lib, ular mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, huquqiy tizimi va bozor munosabatlarining rivojlanganlik darajasiga qarab bir-biridan farqlanadi. Xitoy, Buyuk Britaniya, Turkiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan va tez rivojlanayotgan davlatlar, shuningdek Qozog'iston va Ozarbayjon kabi MDH mamlakatlari o'z milliy sharoitlariga mos ravishda samarali investitsiya jalb qilish mexanizmlarini yaratganlar. Ushbu xorijiy tajribani o'rganish va tanqidiy tahlil qilish O'zbekiston qurilish sanoatida investitsion jarayonni boshqarish amaliyotini takomillashtirishning muhim manbalaridan biriga aylanishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2021 yildagi 239,6 trln so'mdan 2025 yilda 591,1 trln so'mga yetgan bo'lsa-da [16], xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional mexanizmlari, ayniqsa qurilish sanoatida, jahon amaliyotidagi ilg'or modellar bilan solishtirganda hali takomillashuv bosqichida turibdi. Xitoyda davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlari orqali yirik infratuzilma loyihalari amalga oshirilayotgan bo'lsa [3], Buyuk Britaniyada xususiy moliyalashtirish tashabbusi (PFI) orqali 700 dan ortiq loyihaga 56 milliard funt sterling xususiy investitsiya jalb qilingan [5]. Qozog'istonda esa «bir oyna» tamoyili asosida ishlaydigan milliy raqamli investitsiya platformasi orqali qurilish sektori 2025 yilda 7,6 milliard AQSh dollari investitsiya jalb qilgan [18]. Ushbu natijalar xorijiy tajribaning O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Sohada mavjud asosiy muammolar quyidagilardan iborat: birinchidan, xorijiy investitsiya jalb qilish modellarini tanlash va moslashtirishda ilmiy asoslangan mezonlar tizimi mavjud emas; ikkinchidan, xorijiy modellarni mexanik ravishda ko'chirish milliy institutsional muhit xususiyatlarini inobatga olmaslik xavfini tug'diradi; uchinchidan, turli davlatlar modellarining qiyosiy ustunlik va kamchiliklari tizimli ravishda o'rganilmagan; to'rtinchidan, moslashtirish jarayonining samaradorligini baholash uchun uslubiy vosita ishlab chiqilmagan.

Maqolaning maqsadi - qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellarini qiyosiy tahlil qilish, ularning afzallik va cheklovlarini aniqlash hamda O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlarini asoslovchi konseptual model ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: xorijiy investitsiya jalb qilish modellarining nazariy asoslarini ochib berish; yetakchi davlatlar modellarini qiyosiy tahlil qilish; ularning tarkibiy elementlari va natijalarini statistik ma'lumotlar asosida baholash; moslashtirish mezonlarini ishlab chiqish; mualliflik konseptual modelini taklif etish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida xorijiy davlatlarning qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarish modellari olingan. Tadqiqot predmeti - ushbu modellarni O'zbekiston institutsional muhitiga moslashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlardan iborat. Maqolaning ilmiy





yangiligi shundan iboratki, unda beshta xorijiy davlat (Xitoy, Buyuk Britaniya, Turkiya, Qozog'iston, Ozarbayjon) modellari birinchi marta yagona qiyosiy-tahliliy tizimda baholangan hamda ularni milliy sharoitga moslashtirishga qaratilgan konseptual model va moslik indeksi taklif etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiyalarni jalb qilishning xalqaro modellarini o'rganish nazariyasi xorijiy investitsiyalar klassik nazariyalariga asoslanadi. J.Danningning eklektik paradigmasiga ko'ra, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakatning mulkiy, joylashuv va internalizatsiya ustunliklariga bog'liq bo'lib, bu nazariya turli davlatlar modellarining o'ziga xos ustunliklarini taqqoslashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [1]. E.Savasning xususiylashtirish va davlat-xususiy sheriklik nazariyasiga ko'ra esa davlat va xususiy sektor o'rtasidagi risklarni optimal taqsimlash investitsion modelning samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi, bu konsepsiya qurilish sohasidagi PPP modellarining nazariy asosini tashkil etadi [2].

So'nggi yillarda chop etilgan xorijiy tadqiqotlarda investitsiyalarni jalb qilishning milliy modellari chuqur qiyosiy tahlil qilinmoqda. J.-S.Chou va D.Pramudavardxanining tadqiqotida Tayvan, Singapur, Xitoy, Buyuk Britaniya va Indoneziya davlatlari PPP modellarining asosiy drayverlari, muvaffaqiyat mezonlari va risklarni taqsimlash afzalliklari qiyosiy tahlil qilinib, Xitoy va Indoneziya modellari o'rtasida muvaffaqiyat mezonlari bo'yicha yuqori o'xshashlik mavjudligi aniqlangan [3]. I.Chi va hammualliflarning Xitoyning Pekin-Tyanszin-Xebey mintaqasi misolidagi tadqiqotida davlat va xususiy tashkilotlar o'rtasida infratuzilma loyihalar bo'yicha risklarni ikki bosqichli taqsimlash modeli (TOPSIS usuli asosida) ishlab chiqilgan bo'lib, bu model murakkab va nomuayyan risklarni boshqarishda yuqori samaradorlik ko'rsatgan [4]. Uayt end Keys yuridik kompaniyasining 2025 yilda tayyorlangan tahliliy hisobotida Buyuk Britaniya, Avstraliya va Turkiya PPP tajribasi umumlalashtirilib, zamonaviy modellarda eng past narx emas, balki umr davri bo'yicha qiymat (value-for-money) asosiy tanlov mezoni bo'lishi kerakligi asoslangan [5].

MDH davlatlari misolida ushbu masala alohida ahamiyatga ega. KPMG kompaniyasining Ozarbayjon bo'yicha tayyorlagan hisobotida 2016 yilda qabul qilingan maxsus PPP qonunchiligi infratuzilma va qurilish loyihalarida xususiy sektorning ishtirokini kengaytirishga xizmat qilgani ko'rsatilgan [6]. Qozog'iston Respublikasining «Kazakh Invest» milliy kompaniyasi tomonidan joriy etilgan «bir oyna» tamoyilidagi milliy raqamli investitsiya platformasi investorlar uchun davlat idoralari bilan o'zaro aloqani soddalashtirish orqali investitsiya jarayonini tezlashtirgani qayd etilgan [7], bu esa 2025 yilda mamlakat qurilish sektoriga 7,6 milliard AQSh dollari investitsiya jalb qilinishiga xizmat qildi [18].

Mahalliy olimlarning tadqiqotlarida ham mavzuning amaliy jihatlarini yoritilgan. O.T.Astonaqulov va hammualliflarning tadqiqotida innovatsion sanoatda investitsion jarayonni buxgalteriya hisobida aks ettirishning strategik ahamiyati asoslangan [8]. Muallifning o'zi tomonidan ilgari olib borilgan



tadqiqotda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatidagi investitsion loyihalarning holati tahlil qilingan edi [9], biroq ushbu tadqiqotda xorijiy modellarni tizimli qiyoslash va ularni milliy sharoitga moslashtirish masalasi alohida ko'rib chiqilmagan edi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarni umumlashtirib, shuni ta'kidlash mumkinki, mavjud ilmiy adabiyotlarda alohida davlatlarning investitsiya jalb qilish modellari (Xitoy, Buyuk Britaniya, Qozog'iston, Ozarbayjon) keng o'rganilgan bo'lsa-da, ularni O'zbekiston qurilish sanoatining o'ziga xos institutsional sharoitlariga moslashtirishga qaratilgan tizimli uslubiy yondashuv yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur ilmiy bo'shliq ushbu maqolada qo'llaniladigan mualliflik yondashuvining nazariy asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid institutsional va dinamik tahlil, mantiqiy taqqoslash, umumlashtirish, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, xorijiy modellarning O'zbekiston institutsional muhitiga mosligini baholashda ekspertlar bahosi va qiyosiy-institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot nazariy-uslubiy xususiyatga ega bo'lib, asosiy e'tibor xorijiy investitsiya jalb qilish modellarning nazariy asoslarini va ularni milliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan. Ma'lumotlar manbai sifatida xalqaro moliya tashkilotlari, milliy investitsiya agentliklari hamda O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik hisobotlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy davlatlarda qurilish sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishni boshqarish turli institutsional modellar asosida amalga oshiriladi. Ushbu modellar mamlakatning huquqiy tizimi, davlat boshqaruvi an'analari va bozor munosabatlarining rivojlanganlik darajasiga qarab shakllanadi. Umumiy jihatdan, investitsiyalarni jalb qilish modelini davlat va xususiy sektor o'rtasidagi vakolatlar, risklar va moliyaviy majburiyatlarni taqsimlovchi institutsional-huquqiy mexanizm sifatida ta'riflash mumkin. Xorijiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, samarali modellar, odatda, aniq huquqiy baza, mustaqil tartibga soluvchi organlar va shaffof baholash mezonlariga asoslanadi.

Yetakchi xorijiy davlatlarning investitsiya jalb qilish modellarini qiyosiy tarzda ko'rsatish maqsadida quyida tahliliy jadval keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy modellari qiyosiy tahlili

Davlat	Model turi	Asosiy institutsional vosita	Natijasi / o'ziga xosligi
Xitoy	Davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli	Ikki bosqichli risk taqsimlash (TOPSIS usuli)	Pekin-Tyanszin-Xebey mintaqasida yirik infratuzilma loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan



Buyuk Britaniya	Xususiyl moliyalashtirish tashabbusi (PFI/PPP)	Mustaqil tartibga soluvchi agentlik, umr davri bo'yicha qiymat tahlili	700 dan ortiq loyihaga 56 mlrd funt sterling xususiyl investitsiya jalb qilingan
Turkiya	Kafolatlangan daromad modeli	Yo'l-transport loyihalari bo'yicha davlat kafolatlari	Yirik ko'prik va yo'l loyihalarida investorlar ishonchi kuchaygan
Qozog'iston	«Bir oyna» (one-stop-shop) modeli	Milliy raqamli investitsiya platformasi («Kazakh Invest»)	Qurilish sektoriga 2025 yilda 7,6 mlrd AQSh dollari investitsiya jalb qilingan
Ozarbayjon	Maxsus PPP qonunchiligi modeli	2016 yilgi PPP to'g'risidagi qonun	Infratuzilma loyihalarida xususiyl sektor ishtiroki kengaygan
Tayvan / Singapur	Institutsional barqarorlik modeli	Kuchli huquqiy-institutsional baza, past risk darajasi	Yuqori muvaffaqiyat mezonlari (CSF) ko'rsatkichlari qayd etilgan

Manba: [3; 4; 5; 6; 7; 18] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, har bir davlat o'z milliy sharoitiga mos ravishda o'ziga xos institutsional vositani ishlab chiqqan: Xitoyda risk taqsimlashning matematik modellari, Buyuk Britaniyada mustaqil tartibga soluvchi institutlar, Qozog'istonda esa raqamli «bir oyna» platformasi ustuvor vosita sifatida qo'llaniladi. Bu xilma-xillik shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribani O'zbekistonga ko'chirishda yagona andoza mavjud emas, balki har bir modelning alohida elementlarini milliy sharoitga moslashtirgan holda qo'llash maqsadga muvofiq.

Xorijiy modellarning miqdoriy natijalarini qiyoslash maqsadida quyida statistik jadval keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

Xorijiy davlatlarda investitsiyalarni jalb qilish natijalari bo'yicha qiyosiy statistika

Davlat / hudud	Ko'rsatkich	Qiymati	Davr
Buyuk Britaniya	PFI loyihalari bo'yicha jalb qilingan xususiyl investitsiya	56 mlrd funt sterling (700+ loyiha)	Jamlangan
Avstraliya va Yangi Zelandiya	PPP loyihalari umumiy qiymati	160 mlrd AQSh dollari (AUD)	2001–2023
Qozog'iston	Umumiy jamg'arilgan xorijiy investitsiyalar (TII stoki)	151,3 mlrd AQSh dollari	Jamlangan (~70% Markaziy Osiyoda)
Qozog'iston	Qurilish (uy-joy) sektoriga investitsiyalar	7,6 mlrd AQSh dollari (3,8 trln tenge)	2025
O'zbekiston	Xorijiy investitsiyalar umumiy hajmi	34,9 mlrd AQSh dollari	2024


Manba: [5; 18] va rasmiy milliy statistika ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval ma'lumotlari O'zbekiston uchun muhim qiyosiy kontekstni ta'minlaydi: mamlakatning umumiy xorijiy investitsiyalar hajmi (34,9 mlrd dollar, 2024 y.) Qozog'istonning jamg'arilgan investitsiya stoki (151,3 mlrd dollar) bilan



solishtirilganda, investitsion salohiyatni oshirishda institutsional takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Qozog'istonning «bir oyna» tizimi orqali qurilish sektoriga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (7,6 mlrd dollar) O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega benchmark hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilgan qiyosiy tahlil natijalarini umumlashtirgan holda, muallif tomonidan xorijiy investitsion modellarni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish mexanizmining konseptual modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Model to'rt darajadan iborat: birinchi darajada to'rtta yetakchi xorijiy model (Xitoy, Buyuk Britaniya, Qozog'iston, Turkiya) joylashgan; ikkinchi darajada ularni tanlash va baholash mezonlari (institutsional moslik, risk profili, iqtisodiy o'xshashlik) aks etgan; uchinchi darajada moslashtirish mexanizmi (institutsional, huquqiy, moliyaviy transformatsiya) joylashtirilgan; to'rtinchi darajada esa O'zbekistonning institutsional-huquqiy muhiti bilan o'zaro ta'sir natijasida shakllanadigan milliy moslashtirilgan model ifodalangan.



Manba: muallif ishlanmasi.

1-rasm. Xorijiy investitsion modellarni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish mexanizmi

Taklif etilayotgan model shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribani moslashtirish jarayoni ikki tomonlama harakatni talab etadi: bir tomondan, xorijiy modelning tarkibiy elementlari (masalan, Qozog'istonning raqamli «bir oyna» platformasi yoki Buyuk Britaniyaning mustaqil tartibga soluvchi agentligi) tanlanadi, ikkinchi tomondan, milliy institutsional muhitning o'ziga xos xususiyatlari (huquqiy tizim,



davlat boshqaruvi an'analari, bozor rivojlanganlik darajasi) hisobga olinadi. Faqat ushbu ikki jarayonning uyg'unlashuvi natijasida samarali milliy moslashtirilgan model shakllanishi mumkin.

Xorijiy modelni milliy sharoitga moslik darajasini miqdoriy baholash uchun muallif tomonidan quyidagi indeks taklif etiladi:

$$C_{mos} = \sum (s_i \times k_i), i = 1 \dots n$$

bunda: C_{mos} - xorijiy modelning milliy sharoitga moslik indeksi; s_i - i -omil bo'yicha xorijiy model va O'zbekiston institutsional muhiti o'rtasidagi o'xshashlik darajasi (0 dan 1 gacha baholanadi); k_i - i -omilning nisbiy ahamiyatini ifodalovchi vazn koeffitsienti ($\sum k_i = 1$); n - tahlil qilinayotgan omillar soni (huquqiy baza, bozor rivojlanganligi, davlat boshqaruvi sifati, moliyaviy tizim barqarorligi va boshqalar). Indeksning yuqori qiymati (1 ga yaqin) xorijiy modelning milliy sharoitga yuqori darajada mosligini, past qiymati esa modelni jiddiy o'zgartirmasdan qo'llash nomaqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Xorijiy modellarni tanlash va moslashtirishda quyidagi mezonlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi: institutsional moslik darajasi (huquqiy tizimlar o'xshashligi); iqtisodiy rivojlanish darajasining yaqinligi; risk profilining mosligi; moliyaviy tizimning barqarorlik darajasi; davlat boshqaruvi sifati ko'rsatkichlari (masalan, Dunyo bankining Doing Business reytingi); moslashtirish jarayonining xarajat-samaradorligi. Ushbu mezonlar majmui davlat idoralari uchun qaysi xorijiy modelning qaysi elementlarini birinchi navbatda joriy etish kerakligini aniqlashda amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Taklif etilgan moslik indeksini (C_{mos}) amaliy qo'llash tartibini ko'rsatish maqsadida quyidagi shartli misolni keltirish mumkin. Agar Qozog'istonning «bir oyna» raqamli platforma modeli O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi baholanayotgan bo'lsa, ekspertlar tomonidan huquqiy baza o'xshashligi bo'yicha $s_1 = 0,75$, davlat boshqaruvi an'analari o'xshashligi bo'yicha $s_2 = 0,80$, raqamli infratuzilma tayyorgarligi bo'yicha $s_3 = 0,65$ deb baholanishi mumkin. Agar ushbu omillarning vazn koeffitsientlari mos ravishda $k_1 = 0,35$, $k_2 = 0,35$, $k_3 = 0,30$ deb belgilansa, moslik indeksi $C_{mos} = 0,35 \times 0,75 + 0,35 \times 0,80 + 0,30 \times 0,65 = 0,7425$ ga teng bo'ladi. Bu qiymat (0,74) modelning O'zbekiston sharoitiga yuqori darajada mosligini ko'rsatadi va uni nisbatan qisqa muddatda joriy etish mumkinligidan dalolat beradi. Shunga o'xshash hisob-kitoblarni Xitoy yoki Buyuk Britaniya modellari uchun ham amalga oshirish mumkin, biroq ularning murakkabroq institutsional talablari sababli moslik indeksi qiymati past (0,4–0,5 oralig'ida) bo'lishi ehtimoli yuqori, bu esa ularni bosqichma-bosqich, uzoq muddatli dastur doirasida joriy etish zaruratini ko'rsatadi.

Xorijiy tajribani moslashtirishda, shuningdek, har bir modelning mahalliy sharoitda keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini ham oldindan baholash muhim ahamiyatga ega. Xususan, Buyuk Britaniyaning PFI modeli ba'zi mamlakatlarda uzoq muddatli davlat majburiyatlarining ortib ketishi va budget shaffofligining pasayishi kabi muammolarga olib kelgani xorijiy adabiyotlarda qayd etilgan [5]. Shu bois O'zbekistonda ushbu modelning elementlarini joriy





etishda davlat majburiyatlarini muntazam monitoring qiluvchi mustaqil institut tuzish masalasi alohida ko'rib chiqilishi lozim.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlarning investitsiya jalb qilish modellari orasida O'zbekiston uchun eng mos keladiganlari, avvalo, institutsional rivojlanish darajasi yaqin bo'lgan davlatlar (Qozog'iston, Ozarbayjon) tajribasidir. Bu xulosa J.-S.Chou va D.Pramudavardxanining [3] «muvaffaqiyat mezonlari bo'yicha o'xshash institutsional sharoitga ega davlatlar ko'proq o'xshashlik ko'rsatadi» degan xulosasini tasdiqlaydi. Xususan, Qozog'istonning «bir oyna» raqamli platforma modeli [7] O'zbekiston uchun nisbatan tezkor va arzon joriy etilishi mumkin bo'lgan yechim hisoblanadi, chunki u murakkab moliyaviy instrumentlarni emas, balki ma'muriy jarayonlarni soddalashtirishga asoslangan.

Xitoyning risk taqsimlash modeli [4] esa respublikamizning yirik infratuzilma loyihalari (ko'p kvartirali turar-joy majmualari, yo'l-transport ob'ektlari) uchun istiqbolli hisoblanadi, biroq bu model murakkab matematik-statistik apparatni talab qilgani sababli, uni joriy etish uchun avvalo tegishli institutsional salohiyat (malakali kadrlar, axborot tizimlari) yaratilishi zarur. Bu xulosa taklif etilgan moslik indeksi (Cmos) orqali oldindan baholanishi mumkin: agar institutsional salohiyat omili bo'yicha o'xshashlik darajasi past bo'lsa, ushbu modelni to'liq ko'rinishda joriy etish tavsiya etilmaydi.

Buyuk Britaniya va Turkiya tajribasi [5] shuni ko'rsatadiki, PPP loyihalarida nafaqat eng past narx, balki loyihaning umr davri bo'yicha qiymati (sifat, xavfsizlik, ekologik moslik) ham asosiy tanlov mezonlari bo'lishi kerak. Ushbu yondashuv O'zbekiston qurilish sanoatida davlat xaridlari va konsessiya shartnomalarini baholash tizimini takomillashtirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Taklif etilgan moslashtirish modeli va moslik indeksi (Cmos) amaliyotda quyidagi yo'nalishlarda qo'llanilishi mumkin: birinchidan, davlat idoralari uchun qaysi xorijiy tajribani birinchi navbatda o'rganish va joriy etish kerakligini aniqlashda; ikkinchidan, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik dasturlarini loyihalashtirishda; uchinchidan, qurilish korxonalari uchun xorijiy investorlar bilan ishlash strategiyasini ishlab chiqishda. Tadqiqot natijalarining cheklangan jihati shundaki, moslik indeksidagi vazn koeffitsientlarini (ki) ilmiy asoslangan tarzda belgilash uchun keng ko'lamli ekspertlar so'rovi va empirik tadqiqot talab etiladi, bu esa kelgusi ilmiy izlanishlar uchun ochiq masala bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot yakunida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xorijiy davlatlarning qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilish modellari xilma-xil bo'lib, har bir davlat o'z milliy sharoitiga mos o'ziga xos institutsional vositani ishlab chiqqan, bu esa xorijiy tajribani o'rganishda tanlovlar aniq mezonlar asosida amalga oshirilishi zaruratini ko'rsatadi.

2. O'zbekiston uchun institutsional rivojlanish darajasi nisbatan yaqin bo'lgan davlatlar (Qozog'iston, Ozarbayjon) tajribasi, ayniqsa raqamli «bir oyna»





tamoyili, tezkor va arzon joriy etilishi mumkin bo'lgan ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi.

3. Xitoyning risk taqsimlash modeli kabi murakkab institutsional vositalarni joriy etish uchun avvalo tegishli institutsional salohiyatni (kadrlar, axborot tizimlari) yaratish zarurati aniqlandi.

4. Muallif tomonidan taklif etilgan moslashtirish konseptual modeli va moslik indeksi (Cmos) ilmiy asoslangan bo'lib, ularni davlat idoralari va xalqaro hamkorlik dasturlarini loyihalashtirishda qo'llash mumkin.

5. Xorijiy tajribani mexanik ravishda ko'chirish o'rniga, har bir modelning alohida elementlarini milliy institutsional muhitga moslashtirgan holda bosqichma-bosqich joriy etish zarurati asoslandi.

6. PPP loyihalarini baholashda nafaqat narx, balki umr davri bo'yicha qiymat (value-for-money) mezonlarini qo'llash bo'yicha Buyuk Britaniya va Turkiya tajribasidan foydalanish tavsiya etildi.

7. Xorijiy investorlar bilan ishlashni soddalashtirish maqsadida milliy raqamli investitsiya platformasini (Qozog'iston tajribasi asosida) joriy etish va davlat idoralari o'rtasidagi ma'muriy jarayonlarni birlashtirish tavsiya etiladi.

8. Moslik indeksi (Cmos) dagi vazn koeffitsientlarini ilmiy asoslash uchun qurilish va investitsiya sohasi ekspertlari o'rtasida keng ko'lamli so'rovnoma o'tkazish hamda natijalarni davlat dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dunning J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. - 2nd ed. - Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 1993. - 687 p.

2. Savas E.S. Privatization and Public-Private Partnerships. - New York: Chatham House Publishers / CQ Press, 2000. - 320 p.

3. Chou J.-S., Pramudawardhani D. Cross-Country Comparisons of Key Drivers, Critical Success Factors and Risk Allocation for Public-Private Partnership Projects // International Journal of Project Management. - 2015. - Vol. 33, Issue 5. - P. 1136–1150.

4. Chi Y. et al. Exploration of PPP Investment and Financing Model for Infrastructure: A Case Study of the Beijing-Tianjin-Hebei Region // Discrete Dynamics in Nature and Society. - 2021. - Art. 8162840.

5. White & Case LLP. PPP Trends: Lessons Learned from the UK, Australia and Türkiye. - London: White & Case, 2025.

6. KPMG. Public Private Partnership: Alternative Way of Attracting Private Sector to Infrastructure Projects (Azerbaijan case). - Baku: KPMG Azerbaijan, 2019.

7. Ortikbaevich, Karimov Inomjon. "Экономические реформы и тенденции, осуществляемые в строительной отрасли республики." *World conference on modern research approaches*. Vol. 2. No. 1. 2026.

8. Astonaqulov O.T., Asatullaev K.S., Saidaxmedova N.I., Ergashev O.T. Strategic Support for Accounting for the Investment Process in the Innovation





Industry // Journal of Advanced Research in Law and Economics. - 2019. - Vol. 10, No. 6. - P. 1877–1883.

9. Yusupdjanova N., Karimov I. Investment Projects in the Field of Construction Materials Production // ISJ Theoretical & Applied Science. - 2020. - No. 03 (83). - P. 18–21.

10. Арифджанова З.Д. Assessing the Improvement of Management Efficiency in Construction Companies // American Journal of Economics and Business Management. - 2024. - Vol. 7, No. 12. - P. 1337–1343.

11. G'iyosov I.Q., Toxirova R.A. O'zbekistonda islomiy bank xizmatlarini tatbiq qilish imkoniyatlariga ta'sir etuvchi omillar tahlili // Muhandislik va iqtisodiyot jurnali. - 2026. - №3. - B. 855–862.

12. Ortikbaevich, Karimov Inomjon. "Attracting investment projects to the construction industry and improving their efficiency." *SAARJ Journal on Banking & Insurance Research* 10.1 (2021): 47-53..

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

14. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, O'RQ-598-son, 2019 yil 25 dekabr.

15. O'zbekiston Respublikasining «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi Qonuni, O'RQ-537-son, 2019 yil 10 may.

16. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha statistik to'plam, 2021–2025 yy. - Toshkent, 2026.

17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Xorijiy investitsiyalar va to'lov balansi sharhi, 2024–2025 yy. - Toshkent: Markaziy bank, 2025.

18. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (ITIM). Qurilish sanoati investitsion muhiti sharhi, 2025 yil. - Toshkent: ITIM, 2025.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**